

## O'QUVCHILARNI SOG'LOM RUHIY MUHITDA TARBIYALASHDA MAKTAB PSIXOLOGLARINING ROLI

*Hamraliyeva Nabirahon A'zamjonovna  
Farg'ona biloyati Oltiariq tumani MMTBga  
qarashli 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA:** Bugungi jadal rivojlanuvchi davr talablariga muvofiq, o'zgaruvchan zamonaviy maktab ta'lifi oldida ta'lim mazmuni va tuzilmasiga yangicha yondashuv zarurati mavjudligi sababli ko'plab dolzarb vazifalar yuzaga keldi. Endilikda zamonaviy o'quvchi – o'qitishda an'anaviy ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanib emas, balki ularga mustaqil bilim olish hamda egallagan bilimlarini takomillashtirishga intilish malakalarini shakllantirishi hamda o'rgatishi zarur. Ushbu maqolada pedagogikada bol alarning sog'lom ruhiy muhitda tarbiyash usullari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, nutq madaniyati, sog'lom muhit, innovatsiya, pedagogik mahorat, tarbiya, xarakter.

Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'yish har bir inson hayotida muhim burilish nuqtasidir. Bu davr — bolalikning beg'ubor va erkin onlari asta-sekinlik bilan tartibli va maqsadli hayotga o'zgaradigan bosqichdir. Endi bola faqatgina oilaviy burchlar doirasida emas, balki shaxsiy rivojlanishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatlari yo'lida ham faol bo'lishi kerak bo'lgan davrga qadam qo'yadi. Bu o'zgarish bolaning oiladagi roli kamaydi degani emas, aksincha, u yanada muhimlashadi. Endilikda bola nafaqat o'zining xulqi va harakati bilan oilaviy qadriyatlarni ichki muhitda ifodalaydi, balki tashqi muhitda — mактабда, tengdoshlari orasida va boshqa ijtimoiy munosabatlarda — oilasining obro'sini ham himoya qiladi. Bola shaxsi shakllanayotgan bu davrda uning o'zini tutishi, yondashuvi va harakatlari nafaqat o'zining, balki oilasining qadr-qimmati va tarbiyasi haqida ham guvohlik beradi.

Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, har bir inson o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan farq qiladi. Bu farqlilik, avvalo, insonning individual psixologik xususiyatlarida — xarakterida namoyon bo'ladi. Xarakter – bu shaxsga xos bo'lgan, uning turli faoliyatlarda va hayotiy sharoitlarda qanday yo'l tutishini belgilovchi, psixik jihatdan barqaror sifatlar yig'indisidir.

Psixologiyada xarakter – bu shaxsning faoliyat usullarida ifodalanuvchi, ma'lum sharoitlarda doimiy namoyon bo'ladigan va shu sharoitlarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi individual sifatlar tizimi sifatida talqin etiladi. Bu fazilatlar bola maktabga qadam qo'ygan kundan boshlab, har kuni sinovdan o'tadi: u qanday o'rganadi, o'z

tengdoshlariga qanday munosabatda bo‘ladi, ustozlarga qanday hurmat ko‘rsatadi — bularning barchasi uning shaxsiy xarakterini yuzaga chiqaradi. Shu bois, mакtab faqat bilim beradigan emas, balki inson xarakterining poydevorini mustahkamlovchi asosiy muhitlardan biri hisoblanadi. Ruhiy muhiti sog‘lom bo‘lgan oilada voyaga yetgan bola uchun maktabga birinchi bor borish hayajonli bo‘lishi mumkin, biroq bu jarayon u uchun og‘ir sinovga aylanish ehtimoli kam. Chunki bunday oilalarda bola emotsiyonal jihatdan barqaror, psixologik tayyor va ijtimoiy jihatdan faol bo‘ladi. Bunday bolalar yangi muhitga nisbatan tezroq moslashadi va yangi sharoitni o‘ziga yaqin qabul qiladi.

Maktab — bu umumiy tartib va teng munosabatlar muhitidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchiga teng e’tibor bilan qaraydi, bolalar esa jamiyatning teng huquqli a’zolari sifatida o‘z o‘rinlarini egallashadi. Shu bois, ota-onalar farzandining maktabga borishini ortiqcha e’tiborlantirib, uni erkatalish yoki ortiqcha muhofaza qilishdan saqlanishlari kerak. Maktabga borish — bu bolaning hayotiy yo‘lida tabiiy va zarur bosqich bo‘lib, unga bolaga shaxsiy burch sifatida qarash o‘rgatilmog‘i lozim. Agar bola maktabdagi vazifalarini o‘zining mas’uliyati, shaxsiy burchi sifatida qabul qila boshlasa, bu unda o‘ziga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. O‘z burchini anglaydigan bola ichki tartib, mas’uliyat va irodaga ega bo‘ladi. Psixologiyada tan olingan haqiqat shuki: o‘zini hurmat qilmagan inson boshqalarni ham hurmat qila olmaydi. Shuning uchun bola shaxsiyatini shakllantirishda uning o‘ziga bo‘lgan munosabati — o‘zini anglash, qadrlash va o‘z ustida ishslashga intilish — juda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda maktab va oila tarbiyasining yagona yo‘nalishda, o‘zaro hamkorlikda olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Agar maktab va oila bolaga nisbatan bir xil yondashuv, bir xil talab va qadriyatlar tizimini taqdim etsa, bola shaxsiyati uyg‘un, izchil va barqaror rivojlanadi. Aks holda, bola ikki qarama-qarshi muhit o‘rtasida adashib qoladi, bu esa uning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, tarbiyaning har ikki — oilaviy va maktab bosqichlarida ham bir-birini to‘ldiruvchi, izchil yondashuvlar qo‘llanishi lozim. Faqatgina shu yo‘l bilan bola o‘zini hurmat qiladigan, ongli, mustaqil fikrlaydigan va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Har bir bolaning o‘ziga xos individual xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning rivojlanishiga psixologik va fiziologik omillar ta’sir qiladi. Bu xususiyatlar orasida qobiliyat eng muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bolaning turli faoliyatlarga bo‘lgan salohiyatini va imkoniyatlarini belgilaydi. Qobiliyat bilan bilim o‘rtasida sezilarli farq mavjud: bilim – bu o‘rganish va mutolaa natijasida olingan ma’lumotlar yig‘indisi bo‘lsa, qobiliyat – shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishi natijasida shakllanadigan, tabiiy va individual xususiyatlar majmuasi hisoblanadi. Qobiliyatni ko‘nikma va malakadan ajratish zarur. Ko‘nikma – bu ma’lum bir faoliyatni bajarishdagi tajriba va malakaga ega bo‘lishdir. Malaka esa ko‘nikmalarni amalda qo‘llashga asoslanadi. Biroq, qobiliyat bu ikki tushunchadan farq qiladi, chunki u

shaxsning faoliyatga bo‘lgan tayyorligi va o‘ziga xos xususiyatlarining sintezidir. Qobilyatning rivojlanishi davomida inson o‘z faoliyatini mukammallashtirib boradi va o‘z salohiyatini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladi. Qobilyat har bir shaxsda alohida shakllanadi va bu shakllanish jarayonida faoliyatning talablariga mos ravishda psixologik xususiyatlar tizimi yaratiladi. Shuning uchun qobilyat – bu birorta alohida xususiyatning o‘zi emas, balki shaxs faoliyatining talablari va shu faoliyatda yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydigan xususiyatlar majmuasidir.

Qobilyatning tayanch xususiyati – kuzatuvchanlikdir. Bu, odamning atrofidagi voqealarni, narsa va hodisalarini aniqlik bilan ko‘ra olish va ular haqida fikr yurita olish qobiliyatidir. Kuzatuvchanlik qobilyatning rivojlanishiga asos bo‘lib, shaxsning tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, qobilyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – bu narsa va hodisalarning mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. Shaxs o‘zini ifodalashda va muammolarni hal etishda ijodkorlik ko‘rsatishi mumkin. Bu qobiliyat o‘zining tabiiy manbasiga ega bo‘lib, ko‘pincha zehn bilan bog‘lanadi. Zehn — bu insonning o‘zini anglash, dunyoqarashini rivojlantirish va muammolarni hal qilishdagi intellektual salohiyatidir. Shu tariqa, qobilyat bola shaxsining rivojlanishida muhim omil bo‘lib, uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asos yaratadi. Bu qobiliyatning shakllanishi nafaqat tabiat tomonidan, balki ijtimoiy va ta’lim muhitining ham ta’sirida amalga oshadi.

Xarakter (yunoncha "tamg'a", "nishon", "xislat") — bu shaxsning ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanib, uning atrofidagi voqealarga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi, muayyan sharoitlarda uning xatti-harakatlarini belgilovchi barqaror individual psixik xususiyatlar yig‘indisidir. Xarakter, shuningdek, shaxsning psixologik tuzilishi va tarbiyasi natijasida o‘zgarishi mumkin. Bu uning tug‘ma o‘zgaruvchan emas, balki hayot davomida shakllanib boruvchi xususiyat ekanligini ko‘rsatadi. Xarakterni shaxsning tarbiyasi va unga ta’sir etadigan ijtimoiy omillar orqali rivojlantirish mumkin. Masalan, salbiy xarakter xislatlarini bartaraf etish va ijobiy xislatlarni shakllantirish maxsus ta’lim-tarbiyaga bog‘liqdir. Shunday qilib, xarakterning shakllanishi va rivojlanishi faqat tabiiy omillarga bog‘liq emas, balki ijtimoiy va tarbiyaviy omillarga ham bog‘liqdir.

Har bir bola o‘zining qobiliyatları va qiziqishlari bilan ajralib turadi. Ta’lim jarayonida, bolani o‘rgatishda uning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Har bir bola qaysi sohaga qiziqishini aniqlash va unga mos yo‘nalishda ta’lim berish zarur. Masalan, aniq fanlarga qiziqqan bola uchun matematikaga oid ta’lim berish samarali bo‘lishi mumkin, gumanitar sohalarga qiziqqan bola esa tarix, adabiyot yoki san’atga yo‘naltirilishi kerak. Bunda bolani qobiliyatsiz deb baholash noto‘g‘ri, aksincha, har bir bolada o‘ziga xos qibiliyatlar va qiziqishlar mavjud, ularni aniqlab, unga mos yo‘nalishda yo‘naltirish lozim. Bola o‘z imkoniyatlari, qobiliyatları haqida yoshligidan tasavvurga ega bo‘ladi. Tashqi ta’sirlar, ayniqsa ota-onalar va

atrofdagilarning munosabatlari bolada o‘ziga bo‘lgan baho hissini shakllantiradi. O‘ziga yuqori baho beradigan bola ko‘pincha real imkoniyatlarini tushunmaydi va bu o‘zining bilim olishdagi qiyinchiliklariga sabab bo‘ladi. Shuningdek, o‘zini past baholaydigan bola ham o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishga sololmaydi va yangi muhitga moslashishda qiynaladi. Bunday holatlarda, bolaga o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, uning kuchli tomonlarini ko‘rsatish va boshqalar bilan o‘zini solishtirishni o‘rgatish juda muhimdir.

Bolaning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash uchun pedagoglar innovatsion metodlardan foydalanishlari kerak. Bunda quyidagi metodlar yordam beradi:

- 1. Qobilyatni aniqlash testi** – bu test o‘quvchilarning qaysi yo‘nalishda o‘zlarini erkin his qilishlarini aniqlashga yordam beradi va ularni shu sohaga yo‘naltirish imkonini beradi. Bu, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning qobiliyatlariga mos darslar rejalashtirish imkonini beradi.
- 2. Ijodiy qobilyatlarni aniqlash so‘rovnomasi** – bu so‘rovnomalar bolaning ijodiy faolligini o‘lchashga yordam beradi. Unda 4 ta asosiy xususiyat aniqlanadi: qiziquivchanlik, yaxshi rivojlangan hayol, murakkab hodisalarini yechishga intiluvchanlik, tavakalchilikka moyillik.
- 3. Gottshald shakillari metodikasi** – bu metod shaxsning bilish faoliyatida ikki asosiy kognitiv uslubni aniqlashga yordam beradi: maydonga tobelik va maydondan mustaqil uslub. Maydonga tobelik – bu tashqi chalg‘ituvchi omillar ta’siriga kuchli berilish, maydondan mustaqil uslub esa shaxsning tashqi ta’sirdan nisbatan holi bo‘lishini anglatadi.

Bu metodlar yordamida bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va ularni mos ravishda yo‘naltirish orqali ta’lim jarayonini samarali olib borish mumkin. Xarakter, qobiliyat va individual xususiyatlar bola shaxsining shakllanishida muhim omillar hisoblanadi. Ta’limda har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi, unga mos ta’lim berilishi kerak. Buning uchun innovatsion metodlar va pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur. Shaxsni rivojlantirishda o‘ziga bo‘lgan hurmat va ishonchning ortishi, uning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi.

### Xulosa

Bolalarning qobiliyatlarini to‘g‘ri aniqlash va ularni qiziqqan sohalarga yo‘naltirish ularga o‘z hayotlarida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Har bir bola o‘ziga xos qobiliyatga ega bo‘lsa-da, ba’zi bolalar qaysar yoki irodasiz bo‘lishi mumkin, bu esa ularning potensialini to‘liq amalga oshirishlariga to‘sinqlik qilishi mumkin. Shuning uchun ular bilan ko‘proq shug‘ullanish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish, ularni yo‘naltirish juda muhimdir. Bu orqali bola o‘zining haqiqiy imkoniyatlarini anglab, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khankeldiev S. K., Uraimov S. R. EXPERIMENTAL SUBSTANTIATION OF THE METHODOLOGY FOR CONDUCTING PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM, TAKING INTO ACCOUNT REGIONAL FACTORS //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1.
2. Allamuratov S. I., Uraimov S. R. MOTOR TRAINING OF STUDENT YOUTH IN THE PROCESS OF TRAINING IN SPECIALIZED MILITARY TECHNICAL LYCEUMS IN CONDITIONS OF HYPERTHERMIA //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 1.
4. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. Теория и практика современной науки, (5), 29-31.